ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XII-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI



Issue - 2(2025) Available at www.uznauka.uz

# SOTSIOLOGIYA FANINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIY ETISHI

**Meliyeva Parvina Xudoyor qizi**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti, Sotsiologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Gulixudayberdieva43@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Ĝarbiy Yevropada satsiologiya fanining paydo bŏlishi, uning qanday fan tarkibida vujudga kelgani va qanday fanlar bilan aloqadorligini kŏrib chiqiladi. Sotsiologiyani fan sifatida maydonga chiqishi, mutahasis olimlarning asarlari, tadqiqotlari asosida ekanli, uning jamiyatdagi vazifasi, insonlar, institutlar, ijtimoiy guruhlar, tizimlar, tashkilotlar va oilalar ŏrtasidagi munosabatlarni ŏrganish kabi omiarni kŏrib chiqamiz.*

***Kalit sŏzlar:*** *sotsiologiya, institut, individ, predmet, falsafa, obyekt.*

# ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУКИ СОЦИОЛОГИЯ

**Мелиева Парвина Худоёр кизи**

Студентка 1 курса социологии юридического факультета Термезского государственного университета

Gulixudayberdieva43@gmail.com

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается возникновение науки социологии в Западной Европе в конце XVIII – начале XIX века, как она создавалась как наука и с какими науками связана. С момента возникновения социологии как науки, опираясь на труды и исследования специалистов, мы будем рассматривать ее роль в обществе, изучение отношений между*

*людьми, институтами, социальными группами, системами, организациями и семьями.*

***Ключевые слова:*** *социология, институт, личность, субъект, философия, объект.*

# EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF SOCIOLOGY

**Meliyeva Parvina Xudoyor kizi**
1st year student of Sociology, Faculty of Law, Termiz State University
Gulikhudayberdieva43@gmail.com

***Abstract.*** *This article examines the emergence of the science of sociology in Western Europe at the end of the XVIII century and the beginning of the XIX century, how it was created as a science, and what sciences it is related to. Since the emergence of sociology as a science, based on the works and researches of specialists, we will consider its role in society, the study of relations between people, institutions, social groups, systems, organizations and families.*

***Keywords:*** *sociology, institution, individual, subject, philosophy, object.*

Albatta barcha fanlar xilma-xil bŏlganligi uchun ularning tarixi ham turlicha, qisqa va uzun bŏlishi, osuda yoki shiddatli kechishi mumkin. Sotsiologiyaning faninig tarixi esa jamiyat tŏĝrisadagi qarashlarning tarixi bilan boĝliqdir. Chunki jamiyat hayotida muammolar, kelishmovchiliklar avvalgi davrda ham mavjud bŏlgan va hozir ham bor. Insoniyat paydo bŏlibdiki, u ŏzi va

ŏzini ŏrab turgan atrofdagi muammolar bilan birga yashaydi. Sotsiologiya esa ushbu muammolarni yechimi sifatida fanlar maydoniga chiqqan.

Sotsiologiya lot. societs- jamiyat, yun. logos-talimot, tushunchasi degan manolarni anglatadi. Sotsiologiya fani mustaqil fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Ĝarbiy Yevropada vujudga kelgan. Ushbu tushuncha dastlab Fransuz mutafakkiri Ougust Kont tomonidan "sotsiologiya" deb ataldi va fanga olib kirildi. Ougust Kont ŏzining "Pozitiv falsafa ruhi" nomli kitobida yangi ijtimoiy fanni paydo bŏlishidan darak berdi.

Sotsiologiy fanining vazifasi murakkab dunyoni tashkil etuvchi ŏzaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlarni aniqlashdan iborat. Sotsiologiya insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos eng qulay variantlarini topishda va uning amalga oshirishdagi jismoniy,emotsional- psixologik va manaviy imkoniyatlarni ishga soladi. Sotsiologiyani fan sifatida rivojlanishida Ougust Kont, Emil Drukgeym, Maks Veber, Talkott Parsons, Gerbert Spensr, Georg Zimmel, Vilfaredo Pareto kabi olimlarning ilmiy izlanishlari, qŏshgan hissalari, ŏtkazgan ilmiy ishlari, tadqiqotlari katta turtki bŏldi. Sotsiologiya asosan, falsafa fanining tarkibida paydo bŏldi va kŏplab ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador. Xususan ularga matematika, huquq, iqtisod, tarix, kibernetika, fizika va boshqa fanlar kiradi. Sotsiologiya fani asosan tadqiqotlar yordamida jamoatchilikni, guruhlarni, individlarni fikriga asoslanib, jamiyatni ŏzini ŏzi boshqarish va anglashda muhim va qudratli ahamiyatga ega.

Yuqorida aytganimizdek, satsiologiyani keng yoylishida kŏp olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Ular jumlasiga: Ougust Kont( 1798-1857) satsiologiya fanining otasi va satsiologiyada " satsial statika" va " satsial dinamika" nazaryasini ilgari surgan.Gerbert Spensr (1820-1903) jamiyatdagi hodisalarga, ijtimoiy faktlarga

tirik organizm singari nazar tashladi. Emil Drukgeym jamiyatda mehnat taqsimotiga etibor bergan. Bularning barchasi jamiyatni, jamoalar, tizimlar, guruhlar ŏrtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun olib borilgan.

Har bir fanning ŏrganish obyekti va predmeti bŏlgani kabi sotsiologiyaning ham predmet va obyekti mavjud. Predmet-bu ŏrganilishi kerak bŏlgan muammo, obyekt-tadqiqotlar qaratilgan narsa (jamiyat). Sotsioligiyaning predmeti jamiyatni yangi poĝonalarga olib chiqadigan ilmiy-nazariy uslub va yŏl- yŏriqlarni kŏrsatadi. Obyektini esa bir butun jamiyat tashkil etadi. Chunki sotsiologiya yuqorida takidlaganimizdek, jamiyatda insonlar, guruhlar, oilalar, tashkilotlar ŏrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, manaviy-mafkuraviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni, ularning paydo bŏlish qonuniyatlarini ŏrganadi.

Demak Sotsioligiya fani jamiyatda alohida ahamiyat kasb etib, xulosa qilib aytganda, sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi va uning yurtimizga kirib kelishi biz uchun katta yutuq bŏldi desak mubolaĝa bŏlmaydi. Chunki sotsiologlar jamiyatdagi keng qamrovli muammolarni, hodisalarni ŏrganib, ularga yechim topishga, tadqiqotlar ŏtkazib bu muammolarni oson va qulay bartaraf etish yŏllarini topishga harakat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Normurodov. G.Normurodova. "Tafakkur" nashriyoti 2010-y. 4-8 b.
2. Ahrorov, V. Y. Sotsial psixologiya. Samarqand-2020.

3. Jiyanmurotova G. Sh. Sotsiologiya tarixi darslik.- Toshkent:"Innovatsiya- Ziyo",2020.